

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

MUSAYEV Djamaliddin Kamalovich*Bojxona institutining
Maxsus-huquqiy fanlar kafedrasi
dotsenti, (PhD)***USMONALIYEV Jahongirmirzo Ravshanbek o'g'li***Bojxona instituti
4-kurs kursanti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14225388>*

GIYOHVANDLIK VOSITALARIDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLISHTIRISHGA QARSHI KURASHISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi davrda giyohvandlik vositalarining tarqalishi va ularga qarshi kurashish usullari tahlil qilinadi. Maqolada giyohvand moddalar va psixotrop moddalar ishlab chiqarish, ularning turli mamlakatlarda o'simliklardan yetishtirilishi va noqonuniy yo'llar bilan tarqatilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Afg'oniston, Kolumbiya, Meksika kabi davlatlardagi an'anaviy ishlab chiqarish usullari, shuningdek, internet orqali narko savdosining onlayn platformalar orqali qanday amalga oshirilishi va kriptovalyutalar yordamida qanday to'lovlar amalga oshirilishi keltirilgan.

Maqolada, shuningdek, davlatlar tomonidan giyohvand moddalar savdosiga qarshi olib borilayotgan kurash va ushbu jinoyatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda giyohvand moddalar va psixotrop moddalar savdosiga qarshi kurashish uchun qonunchilik va huquqiy chora-tadbirlar, shuningdek, jinoyat moliyalashishi va pul yuvish usullari hamda bu jarayonlarni huquqiy jihatdan to'xtatish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: giyohvandlik vositalari, internet, kriptovalyutalar, innovatsiya, tarkatish usullari, kontrabanda, onlayn savdo, darknet, kriptovalyutalar, legallashtirish, jinoyat, ofshor kompaniyalar, mablag'larni yuvish, soxta kontraktlar, ko'chmas mulk, moliyaviy muassasalar, bitkoin, chegara nazorati, iqtisodiy jinoyatlar, jinoyatga qarshi kurashish.

БОРЬБА ПРОТИВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ ДОХОДОВ ПОЛУЧЕННЫХ ОТ ОБОРОТА НАРКОТИКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются распространение наркотических средств и способы борьбы с ними в современном мире. Описывается производство наркотических веществ и психотропных веществ, их выращивание в разных странах и незаконное распространение. В частности, рассматриваются традиционные методы производства в таких странах, как Афганистан, Колумбия и Мексика, а также способ распространения наркотиков через онлайн-платформы и проведение расчетов с использованием криптовалют.

Также рассматриваются меры, принимаемые государствами для борьбы с наркоторговлей и предотвращения этих преступлений. В статье также приведены предложения по законодательным и правовым мерам для борьбы с наркоторговлей в Узбекистане, а также по финансированию преступности, методам отмывания денег и правовым мерам по прекращению этих процессов.

Ключевые слова: наркотические средства, интернет, криптовалюты, инновации, методы распространения, контрабанда, онлайн-торговля, даркнет, криптовалюты, легализация, преступления, офшорные компании, отмывание средств, фальшивые контракты, недвижимость, финансовые учреждения, биткойн, контроль на границе, экономические преступления, борьба с преступностью.

THE FIGHT AGAINST THE LEGALIZATION OF INCOME FROM DRUG TRAFFICKING

ANNOTATION

This article analyzes the spread of narcotic substances and the methods of combating them in the modern world. It provides information on the production of narcotic and psychotropic substances, their cultivation in various countries, and their illegal distribution. In particular, it discusses traditional production methods in countries such as Afghanistan, Colombia, and Mexico, as well as the distribution of drugs through online platforms and the use of cryptocurrencies for payments.

The article also examines measures taken by governments to combat drug trafficking and prevent these crimes. Additionally, proposals are made for legislative and legal measures to combat drug trafficking in Uzbekistan, as well as the financing of crime, methods of money laundering, and legal actions to stop these processes.

Keywords: narcotic substances, internet, cryptocurrencies, innovation, distribution methods, smuggling, online trade, darknet, cryptocurrencies, legalization, crime, offshore companies, money laundering, fake contracts, real estate, financial institutions, bitcoin, border control, economic crimes, crime prevention.

Hozirda giyohvandlik vositalarining aylanmasi turli usullari mavjud, shuningdek, internet, kriptovalyutalar va innovatsion ishlab chiqarish hamda yetkazib berish usullarini qo'llash kabi yangi tendensiyalar paydo bo'lmoqda. Zamonaviy sharoitda giyohvand moddalar va psixotropik moddalar aylanmasi qanday amalga oshirilishini ko'rib chiqadigan bo'lsak,

An'anaviy ishlab chiqarish va tarqatish usullari Giyohvand moddalar va psixotropik moddalar, odatda, o'simliklar, masalan, opiyli mak, koka, kanabis kabi o'simliklar ekilishi uchun iqlim sharoitlari va siyosiy vaziyatlar qulay bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqariladi. Asosan bu kabi mamlakatlar quyidagilar:

- **Afyum (heroin)** - afyum ekish Afg'oniston, Myanma va Laos kabi mamlakatlarda keng tarqalgan.

- **Kokain** - asosiy ishlab chiqarish Janubiy Amerikadagi Kolumbiya, Peru va Boliviya kabi mamlakatlarda markazlashgan.

- **Marixuana** - an'anaviy ravishda Marokash, Meksika kabi mamlakatlarda va shuningdek, AQShning ba'zi shtatlarida marixuana qonuniy bo'lgan joylarda yetishtiriladi.

Bu mamlakatlarda giyohvand moddalar ko'pincha kichik yoki katta plantatsiyalarda ishlab chiqariladi, so'ngra ular qayta ishlash, qadoqlash va dunyoning boshqa mintaqalariga yuborish jarayonidan o'tadi.

Xalqaro Kontrabanda usuli orqali

Bu usul chegara orqali yashirib olib o'tish hisoblanadi. Kontrabanda usuli qonuniy ravishda olib kelinayotgan oziq-ovqat tovarlari orasida yoki boshqa tovarlar yoki transport vositasi ichki qismlariga yashirib olib kirish orqali;

Shuningdek **Narko-kuryerlar** - narkotiklarni qo'lda yoki tana orqali (masalan, heroin kapsulalarini) olib o'tish uchun ishlatiladi.

Onlayn savdo orqali

Internetning rivojlanishi bilan giyohvand moddalar darknet veb-saytlar orqali yanada kengroq tarqaldi. Bunday platformalarda xaridorlar giyohvand moddalarni buyurtma qilishlari mumkin, sotuvchilar esa marixuana va sintetik narkotiklardan tortib, turli xil moddalarni taklif qiladilar.

- Darknet - Tor kabi anonim internet tarmoqlari sotuvchi va xaridorning shaxsini yashiradi. Bunday platformalarda narkotiklar, qurollar va boshqa noqonuniy mahsulotlar sotiladigan saytlarga duch kelish mumkin.

- Kriptoalyutalar - bitkoinlar va boshqa kriptoalyutalar bu kabi bitimlar uchun to'lov sifatida keng qo'llaniladi, chunki ular anonimlikni ta'minlaydi va tranzaksiyalarni aniqlashni qiyinlashtiradi.

Bunday savdolarni tashkil etuvchi platformalardan biri bo'lgan Silk Road savdo maydonchasi 2013 yilda yopilgan bo'lsa-da, uning yopilishidan so'ng yangi va shunga o'xshash resurslar paydo bo'ldi.

Endi esa giyohvandlik vositalarining aylanmasini bilgandan so'ng ularning legallashtirilishini ko'rib chiqadigan bo'lsa O'zbekiston Respublikasining 26.08.2004 yildagi 660-II-son qonunining 3-moddasiga asosan,

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish - pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, ularni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag'larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilikini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmishdir [1].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 11.02.2011 yildagi 1-son qaroriga asosan JK 243-moddasida nazarda tutilgan daromadlarni legallashtirish tariqasidagi jinoyatning predmeti bu jinoiy faoliyat natijasida topilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk hisoblanadi. Ulardan asosiy jinoyatlar jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlardir (masalan, kontrabanda, o'qotar qurol yoki kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni, giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish va h.k.) [2].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 243 moddaga asosan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi [3].

Shunga qaramasdan shaxslar tez bo'yish deb bilgan noqonuniy yo'llar bilan topib ularga legal tus berishga urinishmoqda. Ushbu yuvish yo'llariga eng asosiy bo'lgan quyidagi usullarni kiritish mumkin:

Offshor kompaniyalar va zonalar orqali mablag'larni o'tkazish

Jinoyatchilar soliq tizimi yumshoq yoki umuman yo'q bo'lgan mamlakatlarda kompaniyalar ochib, pul o'tkazmalarini amalga oshiradilar. Bu kompaniyalar orqali mablag'lar boshqa yurisdiksiyalarga yuborilib, asl kelib chiqishi yashiriladi. Panama Papers (2016) - Bu eng katta ofshor hujjatlari bo'lib, unda Mossack Fonseca kompaniyasining hujjatlari e'lon qilingan. Ular orqali dunyo bo'ylab siyosiy va biznes elitalari ofshor kompaniyalar orqali soliqdan qochish, pul yuvish va aktivlarni yashirishni amalga oshirganini ko'rsatib berdi. Bu hujjatlar orqali yuzlab dunyo siyosiy liderlari va biznesmenlarining ofshor kompaniyalar orqali giyohvandlik vositalaridan olingan daromadlarni legallashtirishga qanday jalb qilganligi oshkor bo'lgan.

Soxta yoki manipulyatsiya qilingan kontraktlar "Glencore" kompaniyasining huquqbuzarliklari - Glencore - xalqaro savdo va konchilik kompaniyasi bo'lib, uning ba'zi operatsiyalari orqali soxta narxlar va manipulyatsiyalar bilan savdolar amalga oshirilgan. Masalan, kompaniya boshqa davlatlar bilan tovarlar eksporti bo'yicha shartnomalar tuzib, ularni ortiqcha narxlarda ko'rsatgan, bu esa asl daromadlarni yashirishga yordam bergan.

Ko'chmas mulk va boshqa aktivlarga sarmoya kiritish "El Chapo" (Joaquín Guzman) va ko'chmas mulk - Meksikaning mashhur narkobaronlaridan biri bo'lgan Joaquín Guzman (El Chapo) ko'plab ko'chmas mulkni o'zining narkotik savdosi orqali topgan daromadlari bilan sotib olgan. 2019 yilda AQShda sudlanganida, u nafaqat narkotiklar savdosi bilan, balki ko'chmas mulk va boshqa aktivlarga sarmoya kiritish orqali ham daromadlarni legallashtirishga harakat qilganligi haqida dalillar taqdim etilgan.

Soxta yoki podstavli kompaniyalar orqali mablag'larni naqd qilish "Danske Bank" va Estoniya orqali pul o'tkazmalari - Danske Bankning Estoniyadagi filialidan o'tgan soxta mablag'lar to'plami 200 milliard dollardan ortiq miqdorni tashkil etdi. Bank shu tarzda soxta kompaniyalar va podstavli shaxslar yordamida pul o'tkazmalari amalga oshirgan va bu mablag'lar ko'plab jinoyat faoliyatlarini (shu jumladan narkotik savdosi) moliyalash uchun ishlatilgan.

Banklar va moliyaviy muassasalar orqali mablag'larni naqd qilish "HSBC" va pul yuvish - 2012 yilda HSBC banki tomonidan amalga oshirilgan pul yuvish amaliyoti haqida ma'lumotlar oshkor qilingan. HSBC banki Meksika, Kolumbiya va boshqa narkotik ishlab chiqaruvchi davlatlardagi mijozlaridan olingan mablag'larni yuvish uchun xizmat ko'rsatgan, bu esa narkotiklarni sotishdan olingan daromadlarni qonuniylashtirishga yordam bergan.

Elektron to'lov tizimlari va kriptovalyutalar "Silk Road" va bitkoin - "Silk Road" onlayn qora bozorining yaratuvchisi Ross Ulbricht, giyohvand moddalarni va boshqa noqonuniy tovarlarni sotish uchun bitkoinlarni ishlatgan. Silk Road orqali giyohvandlik vositalaridan olingan daromadlar kriptovalyutalar yordamida osonlik bilan o'tkazilgan va bu to'lovlar anonim bo'lganligi sababli bu operatsiyalarni kuzatib borish juda qiyin edi. 2013 yilda Silk Road yopilganidan keyin ham uning o'rnini bosgan yangi qora bozorlar paydo bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki Giyohvandlik vositalaridan olingan daromadlarni legallashtirish (pul yuvish) va unga qarshi kurashish masalasi zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Giyohvand moddalar savdosi, ayniqsa, internet va kriptovalyutalar orqali keng tarqalib, yangi tendensiyalarni yaratmoqda, bu esa qonuniy iqtisodiy faoliyat bilan aralashgan jinoyatlarni aniqlash va ularni to'xtatish uchun davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan kuchli choralar ko'rishini talab etmoqda.

Giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va tarqatishning an'anaviy usullaridan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va internet orqali noqonuniy savdolari kengaymoqda. Shuningdek, soxta kontraktlar, offshor kompaniyalar orqali mablag'larni o'tkazish va ko'chmas mulk kabi vositalar yordamida daromadlarni legallashtirish amaliyotlari hamda kriptovalyutalar yordamida amalga oshirilayotgan pul yuvish jarayonlari jamiyatni va iqtisodiyotni jiddiy xavf ostiga qo'yimoqda.

Biroq, ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish nafaqat qonuniy jazolarni kuchaytirish, balki samarali profilaktika choralarini, chegara va bojxona nazoratini takomillashtirish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish, va yangi texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, raqamli monitoring tizimlari va sun'iy intellekt yordamida giyohvandlik vositalaridan olingan daromadlarni legallashtirish amaliyotlarini aniqlashda yanada samarali choralar ko'rilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida jinoyatga qarshi kurashish va daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashuvchi organlar o'rtasida xalqaro hamkorlik, xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va FATF kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, bu jarayonlarni yanada samarali qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, xalqaro savdolarni va moliyaviy operatsiyalarni kuzatish orqali giyohvandlik vositalaridan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning samarali usullarini yaratish va jinoyatlarni fosh etishda texnologiyalardan kengroq foydalanish joriy etilishi lozim. Bu harakatlar, albatta, global va milliy xavfsizlikni ta'minlashga, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

REFERENCES. IQTIBOSLAR. СНОСКИ.

1. O‘zbekiston Respublikasining 26.08.2004 yildagi 660-II-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 11.02.2011 yildagi 1-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.